

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIK KONSULTATSIYA, UNING TURLARI VA UNGA MUROJAAT QILISH SABABLARI

**N.A. Kozimova**

*Buxoro davlat Universiteti*

*Psixologiya mutaxassisligi*

*II bosqich magistranti*

**Sh.M. Ulug'ova**

*Falsafa fanlari doktori,*

*psixologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada zamonaviy psixologik konsultatsiya nima ekanligi, uning qanday bosqichlari va qoidalari borligi, bugungi zamonaviy psixologiyaning turlari hamda kimlar aynan psixologga murojaat qiladilar, hayotda bizga psixolog nima uchun kerak? – kabi savollarga javob beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy psixologik konsultatsiya, psixoterapiya, psixokorreksiya, shaxs, ijtimoiy muhit, xavf guruhi, deviant xulq, interpretatsiya.*

**Аннотация:** *В этой статье, что такое современная психологическая консультация, каковы ее этапы и правила, виды современной психологии на сегодняшний день, и кто обращается к психологу, зачем нужен психолог в жизни? - ответы на такие вопросы.*

**Ключевые слова:** *современное психологическое консультирование, психотерапия, психокоррекция, личность, социальная среда, группа риска, девиантное поведение, интерпретация.*

**Abstract:** *In this article, what is a modern psychological consultation, what are its stages and rules, the types of modern psychology today, and who appeals to a psychologist, why do we need a psychologist in life? - such questions are answered.*

**Key words:** *modern psychological consultation, psychotherapy, psychocorrection, person, social environment, risk group, deviant behavior, interpretation.*

### KIRISH

Yaratganning eng ulug' mo'jzalaridan bo'lgan inson har davr uchun eng qiziqarli jumboq bo'lib kelgan. Inson ruhiyatini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirish psixologiyaning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Bu borada ko'plab izlanishlar olib borilgan. XX asrning 60 – yillariga kelib psixologiyaning amaliy jihatlari ya'ni insonga, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish sohasiga o'tildi. Ushbu soha alohida sifatida vujudga kelsada, lekin aslida u amaliy psixologiyaning ko'lami kengaytirilgan bir ko'rinishini aks ettirish xususiyati bilan boshqalardan muayyan tarzda farqlanib turardi.

### MATERIAL VA METOD

Bugungi zamonaviy psixologik konsultatsiya bir muncha psixoterapiya bilan bog'langan. Har davrning o'z odami bor degandek, har davrning ham o'z psixologi bo'lishi darkor. Nimaga deganda kechagi inson, bugungi insondan tubdan farqlanadi. Shu sababdan har qanday soha yangilanishga va o'zgarishga muhtoj bo'lgandek, psixologiya ham o'zgarishga yuz tutishi darkor edi. Bu amaliy psixologiya sohasidagi – zamonaviy psixologiya sohasidir. Ammo zamonaviy psixologiya hali zamoni inson ruhiyatdan orqada. Soha bilan inson ruhiyati tenglashishi uchun o'rtada ma'lum chegara va vaqt bo'lishi bu tabiiydir. Nimaga deganda insonni o'rganish, uni tahlil va tatbiq etish uchun ma'lum vaqt kerak. Endi psixolog – konsultantga kim, qachon va nima uchun murojaat qiladi ko'rib chiqaylik. Odatda, psixolog – konsultantga aholining o'rtacha qatlami deb ataladigan va yuqori xavf zonasida jismoniy va ruhiy salomatligi sababli bo'lgan murojaat qilishadi.

### **NATIJARLAR**

Mijozlarning psixologik konsultatsiyaga murojaat qilishiga qarab quyidagi toifalga bo'linadi:

1- Toifa-insonlar muammolariga javobni bilashadi lekin ikkilanishadi qaror chiqarishga va psixolog unga ko'mak berishiga ishonib kelishadi. Emotsion qo'llab quvvatlashga intiladi.

2- Toifa mummoni qanday hal qilishni bilishmaydi va maslaha uchun psixologga borishadi.

3- Toifa insonlar o'ziga to'liq ishonmagan va ichki imkoniyatlaridan bexabar, aniq nimani tanlashni bilishmaydi o'zini muammolarini yechimida. Ularni o'z faoliyalarini to'g'ri yo'nalishga ishontirish va yo'naltirish kerak.

4- Toifa bu oddiy o'zini yakka his qiluvchi shaxslar faqatgina bularga yurakdan suhbatlashishga psixolog kerak bo'ladi. Bular o'zini yakkalangan sezadi. Ular odatda jiddiy psixologik muammolarga ega emaslar, lekin vaqti – vaqti bilan ular diqqatli va xayrixoh suhbatdoshga muhtoj.

5- Toifa o'ziga qiziqqan o'z xarakter xususiyatlarini bilib olishga qiziqadigan toifadagi mijozlar.

6- Toifa psixologik konsultatsiya mijozlari orasida psixologik – konsultantga bo'sh qiziqish yoki unga qarshi kurashish istagi keltirilganlar ham bor Ba'zilar, albatta, psixolog – maslahatchi kim ekanligi va u nima qilayotganini bilishni istashadi, boshqalari esa jiddiy ish bilan shug'ullanayotganiga ishonch hosil qilishadi va psixolog – maslahatchini noqulay ahvolga solib, uni isbotlashga harakat qilishadi.

7- Toifa hissiy zo'riqqan, yaqinlarini yo'qotgan, qo'rquv, fobiyalar, psixik buzilishlar somatic kasalliklarga uchragan shaxslar.

8- Toifa kasbiy zo'riqishda hayotguzaronlik qilgan, vijdon oldida xolis shaxslar.

9- Toifa nuqsonlarning tibbiy va deffektologik tabiatini aniqlaydi va korreksion ishlar olib boradi.

10-Toifa giyohvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilikning ijtimoiy – psixologik ildizlarini tekshiradi, ularning omillarini tahlil qiladi va korreksion ishlar olib boradi.

### **MUHOKAMA**

Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtdapsixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda muhim muammo bo'lib qolmoqda. Demak, tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun, O'zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o'rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning nihoyatda sust ekanligi; ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo'nalishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi-xodimlar muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rganish va kamol toptirish bilan bog'liq bugungi O'zbekistonning o'z istiqbol va istiqbol yo'li, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda har bir maslahat berishda psixolog nazariy, amaliy (hayotiy), diniy va dunyoviy tomonlarini hisobga olgan holda har tomonlama mijozning shaxsiyatiga tegmagan holda o'zining streotiplariga, hissiyotiga berilmagan holda fikr yuritishi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. Oquv qo'llanma . Buxoro 2007 y
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999y
3. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b
4. Qodirova A. B. AN ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC CONTENT OF PSYCHOLOGICAL VIEWS AND THEORY OF SUFISM IN THE WORKS OF ALKHAKIM ATTERMIZI . TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2021/1-SON
5. А.Б.Қодирова. АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.